

“TASDIQLAYMAN”

“Muxammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti”

Mohiya qo'shuvchisi bo'yicha prorektori:

S. Toshmatov

2022-yil “ ”



## **Yong'in xavfsizligi va texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma**

### **Taqiqlanadi:**

-bino ichiga yong'in jihatidan xavfli, zaharli va nafasni qaytaradigan (bo'g'adigan) moddalarni olib kirish, saqlash hamda foydalanish;

-bino ichida chekish va hududida olov yoqish;

-maxsus issiqlik himoya qurilmalari bo'lmagan, issiqlikni o'tkazmaydigan maxsus material bilan himoyalangan, yong'inga olib keladigan xavfli uskunalardan foydalanish;

-ishlab turgan kompyuter, monitor hamda boshqa uskunalarni korpusini ochish;

-yong'inga olib keladigan nosoz elektr asboblardan va uskunalardan foydalanish;

-evakuatsiya, chiqish yo'llari va eshiklarni mebellar, uskunalar, boshqa turdagi narsalar bilan to'sib qo'yish;

-elektr asboblarni yerga ulanmasdan ishlatish va himoya xususiyati yo'qolgan yoki shikastlangan elektr simlardan va kabellardan foydalanish;

-ishlab turgan uskunalarni (televizorlarni, mikro to'lqinli pechlarni, elektr choynaklarni, maishiy texnikalarni) nazoratsiz qoldirish.

### **Avariya holatlarida xavfsizlik talablari**

Avariya holati sodir bo'lganda quyidagilarga amal qilish zarur:

-tutun chiqqanda, me'yordan tashqari shovqin yoki qizib ketish paydo bo'lganda darhol ishni to'xtatish, elektr rozetkadan vilkani olish va xizmat ko'rsatuvchi xodimni chaqirish;

-elektr kuchlanishga tushib qolgan shaxsga himoya vositalari bilan tegishli choralar ko'rsatish, ya'ni rezina qo'lqopdan foydalangan holda yoki jarohat olgan shaxsning kiyimini quruq bo'lgan joyidan tortish, vrach kelginicha tezda jarohat olgan insonga birinchi yordam ko'rsatish (**103** ga qo'pgiroq qiling).

Agar yong'in sodir bo'lsa quyidagi choralarni bajarish zarur:

- yong'in signalizatsiya moslamasini yoqish;

-xodimlarni evakuatsiya qilish sxemasi bo'yicha binodan chiqib ketishini ta'minlash;

-o't o'chirish komandasini chaqirish (**101** ga qo'ng'iroq qiling);

Avariya, yong'in yoki favqulodda vaziyat sodir bo'lganda zudlik bilan “Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti”

rahbariyatiga xabar berish.

Yong'in xavfsizligi va texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma talablariga hamda qoidalariga rioya qilmagan xodim ma'muriyat tomonidan moddiy va ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Xo'jalik bo'limi boshlig'i



A. Suyunov

Fuqaro va mehnat muhofazasi bo'limi boshlig'i



A. Savriddinov